

T.SODIQOV, R.GLIER, F.SODIQOVLARNING “LAYLI VA MAJNUN” MUSIQALI DRAMASIDA MAQOM AN’ANALARI

Komila Tadjibayeva

Yunus Rajabiy nomidagi

O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti

2-kurs magistranti, musiqashunos

Ilmiy rahbar: dotsent, PhD Sh.Berdixanova

Annotatsiya: Ushbu maqolada T.Sodiqov, R.Glier, F.Sodiqovlarning “Layli va Majnun” musiqali dramasi yuzaga kelish tarixi hamda musiqali dramada qo‘llanilgan maqom an‘analari atroflicha ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, o‘tgan asrda ilk marta sahna yuzini ko‘rgan musiqali spektakl bugungi kunda qayta ishlangan variant bilan taqqoslama tahlili maqolada aks etadi.

Kalit so‘zlar: musiqali drama, opera, spektakl, libretto, dramaturg, drama.

Аннотация: В статье подробно рассматривается история возникновения музыкальной драмы «Лейли и Меджнун» Т. Садыкова, Р. Глиэра и Ф. Садыкова, а также традиции макома, используемые в музыкальной драме. В статье также представлен сравнительный анализ музыкального спектакля, впервые появившегося на сцене в прошлом веке, с его современной версией.

Ключевые слова: музыкальная драма, опера, спектакль, либретто, драматург, драматург.

Abstract: This article examines in detail the history of the musical drama "Layli and Majnun" by T.Sodikov, R.Glier, F.Sodikov and the traditions of maqom used in the musical drama. The article also provides a comparative analysis of the musical performance, which was first staged in the last century, with the revised version today.

Keywords: musical drama, opera, performance, libretto, playwright, drama.

Ma’lumki, 1916-yil 30-dekabr "Kolizey" teatri (Toshkent) da Ozarbayjonning mashhur teatr aktyori va rejissyori Sidqiy Ruhillo (Ruhillo Fatali o‘g‘li) boshchiligidagi musiqali teatr truppasi bilan hamkorlikda "Layli va Majnun" (Fuzuliy dostoni asosida) musiqiy drama (opera)si namoyish etiladi. Asar librettosini ozarbayjonchadan o‘zbekchaga Avloniy tabdil qilgan bo‘lib, rejissyori S.Ruhillo edi. Asosiy rollarni Sidqiy Ruhillo (Majnun), Durriyaxonim (Layli), Abdulla Avloniy (Malu'), A.Muharramov (Navfal), Nizomiddin Xo‘jaev, Farid Tohiriy, Yusuf Alievlar ijro etgan. "O‘zbek teatri tarixi uchun materiallar" (Miyon Buzruk Solihov, 1935) asarida keltirilishicha, ushbu spektaklda ilk o‘zbek aktrisasi Mas’uma Qoriyeva ham qatnashgan.

Shu sababdan o‘zbek bastakorlari, kompozitorlari hamda dramaturglari “Layli va Majnun” dostoniga qo‘l urishdi. Musiqali drama janri an‘analariga muvofiq, sahna asari xalqchil, milliy ruh kasb etgan holda bastalandi. “Layli va Majnun” musiqali dramasi birinchi varianti 1922-yilda Manon Uyg‘ur tomonidan Alisher Navoiyning “Xamsa” asari

asosida Farg'ona teatrida sahnalashtirilgan. Ikkinchi bor 1923-yilda Toshkentdagi "Tomosha bog'i" teatrida, 1924-yili "O'lka namuna" drama teatrlarida qo'yilib, musiqasini Shorahim Shoumarov bilan Xurshidning o'zi o'zbek kuy va ashulalari asosida ishlagan edi. 1922-yildan 1933-yilga qadar "Layli va Majnun" Respublika va havaskorlik teatrlarida aynan birinchi variantda qo'yilib kelgan. 1933-yilga kelib, "Layli va Majnun" musiqali dramasi yana ikkinchi variantdagi musiqasini Tolibjon Sodiqov ustози N.Mironovning maslahatlariga tayanib bastaladi²⁴.

Bu davrda o'zbek bastakor va kompozitorlari musiqali drama musiqasining ifodaviy imkoniyatlarini kengaytirishdi. "Layli va Majnun" (Navoiyning shu nomli dostoni asosida Xurshid librettosi; T.Sodiqov musiqasi) keyinchalik mazkur asar bir necha marotaba tahrirdan o'tkazildi. Avvalgi musiqiy nomerlar saqlanib, sayqallandi. Bu variantda avvalgilaridan farqli o'laroq, o'zbek xalq musiqa merosidan tashqari yangi bastalangan ayrim rechitativlar, ko'povozli xor nomerlari kiritildi. Ijroga simfonik orkestr cholg'u sozlaridan skripka, violonchel, kontrabas, fleyta, goboy, klarnet va litavra qo'shildi. Ushbu spektaklni iste'dodli rejissyor Muzafar Muhamedov sahnalashtirgan. Mohir rassom Shonazar Shorahimov sahnaviy dekoratsiya va tasvirlarini ishlagan. Layli rolini Halima Nosirova, Majnun-Boborahim Mirzayev, Karim Zokirov, Omir-Raim Bobojonov, Mahdiy-Zuhur Qobulov, Navfal-M.Qoriyoqubov, Laylining onasi Sofiya-Lutfixonim Sarimsoqova, Navfalning qizi Jamila- Yunusovalar ijro etganlar. Yakka raqslarni M.Turg'unboyeva, R.Karimova, X.Rahimova, D.Olimov, Ye.Baranovskiy, A.Davidov va teatr raqqoslari jamoasi qatnashgan.

1940-yilda so'z mulking sultoni Alisher Navoiyning tavalludining 500 yillik tantanalari arafasida "Layli va Majnun" musiqali dramasi operalashtirish uchun Tolibjon Sodiqov kompozitor Reyngold Glier bilan hamkorlikda, Xurshid librettosi asosida yirik sahna asarini yozib tugatadilar. Musiqali drama yillar davomida tahrir o'tkazilib, bu ijodiy jarayonga bastakor Fahriddin Sodiqov ham jalb etiladi. Natijada, Tolibjon Sodiqov, Reyngold Glier, Fahriddin Sodiqov hamkorlikda bugungi kunda Muqimiy teatri sahnasida ijro etilayotgan "Layli va Majnun" musiqali dramasi yuzaga

Muqimiy nomidagi teatr o'z an'alarini davom ettirish uchun hamda yuksalish yillarining dovrug'li spektakllarini yangi zamonga moslab tiklash maqsadida bir paytlar uning tashrif qog'oziga aylangan "Layli va Majnun" (sahnalashtiruvchi rejissyor M.Azizov) va "Tohir va Zuhra" (sahnalashtiruvchi rejissyor A.Farmonov) musiqali dramalarini 2016-yilda qayta sahnalashtirdi.

Adabiy matn muallif Sh.Xurshid, kompozitor T.Sodiqov, R.Glier, F.Sodiqov, sahnalashtiruvchi rejissyor O'zbekiston xalq artisti Mirza Azizov, sahnalashtiruvchi dirijyorlar Akmal To'rayev, sahnalashtiruvchi rassom Baxtiyor To'rayev. Bosh rollarda: Qays- R. Ibragimov, Layli - D. Abdualimova, A.Navoiy - A. Latipov, Omir - A.

²⁴ А.Жабборов. Музей драмы и комедии жанры Узбекистана композиторов и их творчества. Ташкент: 2000, 69-бет.

Bekchanov, Maxdi - T. Beknazarov, Enaga – M. Ixtiyorova, Ibn Salom - X. Ortiqov, Navfal - U. Shodmonov, Zaid - R. Dadajonov.

“Layli va Majnun” spektakliga avvalgi variantlardan farqli o‘laroq Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonining yangi, o‘qilmagan sahifalarini qo‘shish fikri bilan qo‘l urildi. Sharqning buyuk shoirlari tomonidan yaratilgan bir qator “Layli va Majnun” dostonlariga qiyoslarda ulug‘ bobomizning dostoni ilohiy ishq, Layli timsolida Alloh jamolini ko‘rish, his etish xususidagi ulug‘vor qarashlar bilan ajralib, farq qilib turadi. Rejissyor Mirza Azizov yangi talqinidagi spektakl g‘oyasini ilgari surarkan, dostonning shu jihatiga e‘tiborni qaratadi.

Muqimiy nomidagi o‘zbek davlat musiqiy teatri ijodiy jamoasi davlat buyurtmasi asosida buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonini tamomila yangicha ko‘rinishda sahnada jonlantirdi. Spektaklga adabiyotshunos Shuhrat Rizayev tomonidan muallifi yangi sahnalar qo‘shildi, jumladan Alisher Navoiy obrazi, Xurshid pesasidagi maktab sahnasi, Qaysni Ka’ba ziyoratiga olib borish bilan bog‘liq bir qator yangi ko‘rinish va lavhalar kiritildi.

Ma’lumki, spektaklda sevgi va sadoqat, pok muhabbat hamda ilohiy ishq tarannum etilgan. Shuningdek, bir qator ijtimoiy masalalar ko‘tarilgan bo‘lib, unda qabilalararo tengsizlik, insoniy tuyg‘ulardan ko‘ra shon-shuhratni yuksak qo‘yadigan kimsalar qismati hamda ilohiy ishqqa muhtalo bo‘lgan Qays va Laylining o‘z ahdi yo‘lidagi kurashi va bu yo‘lda ularning qurbon bo‘lishi voqealari aks ettirilgan. Pirovardida ta’kidlash joizki, daho shoir, davlat arbobi, madaniyat va san’at homiysi Alisher Navoiyning mazkur dostoni hozirgi kunimizda ham mavzusi va g‘oyasi bilan o‘z ahamiyatini yo‘qotmagani, aksincha bugungi zamonamizga hamohang jihatlarini namoyon etdi. Yana ta’kidlash o‘rinliki, yangicha sahna bezaklari va musiqa spektaklning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Rollarni teatrning yetuk ijodkorlari qatorida iste’dodli yosh san’atkorlar ijro etishgan.

Mazkur asar Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni asosida yaratilgan bo‘lib, unda pok muhabbat, ilohiy sevgi ulug‘langan. Asarda asosiy ijtimoiy masalalar, xususan qabilalararo tengsizlik, insoniy tuyg‘ulardan ko‘ra boylikni yuksak qo‘yadigan kimsalar hamda ikki sevishgan Qays va Laylining o‘z ahdi yo‘lidagi kurashi va ularning ishq qurbonlariga aylanishidir.

Alalxusus, bu ko‘xna ishq afsonasi bo‘lsa-da bugungikunda ham o‘z qiymatini yo‘qotmagan, hali hanuz birinchi galda mol-mulkka sajda qiluvchilar mavjud ekanligiga inja ishora qilinadi. Qaysning muhabbati ilohiy ishqqa aylanib, u Ollohning nuri sevgilisining yuzida aks etayotgani bois bu ziyodan ko‘zlari qamashib, majnunga aylanadi. Spektaklda sevgi va sadoqat, pok muhabbat hamda ilohiy sevgi tarannum etilgan. Shuningdek, asosiy ijtimoiy masalalar ko‘tarilgan bo‘lib, unda qabilalararo tengsizlik, insoniy tuyg‘ulardan ko‘ra shon-shuhratni yuksak qo‘yadigan kimsalar qismati hamda ilohiy ishqqa muhtalo bo‘lgan Qays va Laylining o‘z ahdi yo‘lidagi kurashi va bu yo‘lda ularning qurbon bo‘lishi voqealari aks ettirilgan. Buyuk shaxs - daho shoir, davlat arbobi, madaniyat va san’at homiysi Alisher Navoiyning mazkur dostoni

hozirgi kunimizda ham o'zining mavzusi va g'oyasi bilan o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Yangicha sahna bezaklari va musiqa spektaklning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Sharq shoirlari yaratgan muhabbat haqidagi asarlar orasida Navoiyning bu dostoni gulto, sara sanalib, har zamon uchun oyna vazifasini o'taydi.

“Layli va Majnun” musiqali dramasi muvaffaqiyati asarga kiritilgan maqom durdonalari: “Iroq”, “Segoh”, “Shahnozi-Gulyor”, “Ushshoq”, “Chorzarb”, “Chorgoh”, “Bayot”, “Chapandozi-Gulyor”, “Qalandar II”, “Toshkent Iroq'i” kabi o'zbek, tojik, arab xalq qo'shiq-yallalari va kompozitor, bastakorlarning mualliflik musiqasi milliy ruhda yaratilganligi bois tomoshabinlarning qalbidan munosib o'rin egallagan.

“Layli va Majnun” liriko-epik musiqali drama bo'lib, yettita kartinadan tashkil topgan. Uning asosini yakka nomerlar egallasada, xor va ansambl va raqsning ahamiyati katta. Musiqali dramada asosan uchta qahramon ya'ni Layli, Qays va Omir obrazlari leytmotivlarga asoslangan. Ariyalarning asosida o'zbek an'anaviy musiqasidagi turli maqom yo'llaridan foydalanilgan. Masalan: 2- kartinadagi Qaysning markaziy ariyasi “Buzruk” maqomining 2-guruh sho'basidagi “Iroq” kuyi asosida yozilgan, Majnunning “Girya” ariyasi Farg'ona-Toshkent maqom yo'llaridan “Shahnozi-Gulyor”ning “Girya” qismidan olingan. Laylining 7-kartinadagi ariyasida “Chorgoh”, Laylining otasi Omir ariyasida “Bayot IV”, Naufal ariyasi “Chapandozi Gulyor”, Majnunning 7- kartinadagi ariyasi “Segoh” maqomi kuylari asosida yaratilgan. Bundan tashqari musiqiy partiturasini kuzatganimizda Layli va Qaysning partiyalarida arab musiqasiga xos bo'lgan intonatsiya (ohang)lar e'tiborimizni tortadi. Fikrimizcha bunga sabab asarda Layli va Qaysning arab qabilalaridan ekanligi yozilganligi bo'lsa kerak.

“Layli va Majnun”dagi yakka nomerlarning deyarli barchasida Shashmaqom va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llaridan foydalanilgan. Shu o'rinda bir savol tug'iladi, nega endi Farg'ona-Toshkent maqom yo'llaridan keng foydalanilgan? Fikrimizcha, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari Shashmaqomga nisbatan xalq orasida keng tarqalgan va mashhurdir. Yuqorida aytib o'tganimizdek ilk xalqda qiziqish uyg'otish maqsadida musiqali dramalarda xalqqa tanish bo'lgan ohanglardan ko'proq foydalanilgan. Balki, shu sababdan bu maqom yo'llaridan foydalanilgandir?!

Shashmaqom va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llaridan iqtibos sifatida olingan kuylar asosiy ishtirok etayotgan qahramonlarning musiqiy xarakteristikasini ochib berishga xizmat qiladi.

Bu borada Qaysning 2-kartinadagi ariyasi ahamiyatga molikdir. U Shashmaqomdagi “Buzruk” maqomining Iroq sho'basidagi asosida yaratilgan, bu ariya Iroq kuyini to'laqonli ravishda qaytaradi. Ariya Iroqning miyonxat qismidan boshlanadi.



Uvertyurada bu mavzu yumshoq, shoirona xarakterda violoncheller bilan ijro etilsa, 1-kartinada bu mavzu orkestr epizodida hayajonli xarakterda keladi. Qolgan qismlarda bu mavzu ikki variantda keladi. Ulardan biri orkestr partiyalarida epizodlarda rivojlantiriladi. Ikkinchisi esa vokal qismlarda rivojlantiriladi. Qays ariyasidan tashqari “Iroq” kuyi 2-kartinadagi Layli va Qaysning duetida, 2-7- kartinadagi Layli ariyalarida va shu qismlarning xor sahnalarida rivojlantirilgan tarzda qo’llaniladi. Musiqali dramadagi barcha iqtiboslar “Iroq” kuychalik mukammal bo’lmasada, har bir maqom kuyining ohanglari deyarli o’zgarmagan holda qo’llanilgan. Bu borada 7-kartinadagi Laylining ariyasi Iroqqa juda yaqin. Unda “Chorgoh”ga hos ohanglar xam milliyiligini saqlab qolgan. Butun musiqali dramadagi iqtiboslardan “Iroq” va “Chorgoh” kuylari garmonik bo’yoqlar, simfonik rivojlanish jihatdan mukammal deyish mumkin.

“Layli va Majnun” musiqali dramasi²⁵ning yangi talqini avvalgi variantida qo’llanilgan musiqiy nomerlar qisman saqlangan. Kompozitor Sarvar Yusupov tomonidan musiqali dramaning ba’zi musiqiy nomerlarini garmonik jo’rligini qayta tahrirdan o’tkazgan. Bugungi kunga qadar yetib kelgan “Layli va Majnun” musiqali dramasi klaviri musiqiy nomerlari quyidagi tartibda aks etadi:

1. Uvertyura.
2. “Qays va xor”.
3. “Qays ariyasi” (“Toshkent Irog’i”).
4. “Qays ariyasi” (“Nigora”).
5. “Qays va Layli dueti” (“Ko’ngilni buzamen”).
6. “Majnun ariyasi” (“Bag’rim tig’i hajar ila”).
7. “Jayron raqsi”.

²⁵ Mazkur musiqali dramaning klaviri va partiturasini Muqimiy nomidagi O’zbekiston davlat musiqali teatri kutubxonasida saqlanadi.

8. “Arabcha raqs”.
9. “Majnun ariyasi” (“Hijronni jafosi”).
10. “Layli ariyasi” (“Jonim ota”).
11. “Layli ariyasi” (“Chorgoh”).

Laylining “Manam ki oshiq qil” misralari bilan aytiladigan ariyasi “Ushshoq” asosida yozilgan. Mazkur ariyani kompozitor Sarvar Yusupov qayta ishlagan

Con moto

Bu yerda kuy yo’li saqlangan holda garmonik jo’rlikni ifodali, ravon harakatini kuzatish mumkin. Musiqali dramalarda avvalgi variantlarda kuzatilgan orkestr va vokal partiya o’rtasidagi nomuvofiqlik holatlari mazkur tahrir orqali o’zini ijobiy yechimini topgan. Layli ariyasida maqomlarning nasr bo’limiga xos rivojlanish tamoyillarini kuzatishimiz mumkin. Bu ariya operada ham saqlangan.

56

59-taktdan vokal partiyada hanglarni kuzatish mumkin. Bu yerda Ushshoqning miyonxati ifoda etiladi. Ritmik jo’rlikni doira cholg’usi bajaradi. Milliy cholg’ular nay, rubob, qonun kabi sozlar milliy xarakterni teran ifoda etishda yaqindan yordam beradi.

8 A

Layli obrazining “Jonim ota” misralari bilan boshlanadigan ariyasi maqom ashulalariga monand ravishda yozilgan. Laylining ichki psixologik holati musiqiy nomerda yaqqol namoyon bo’ladi. Dastlab daromat qismi “si” tovushidan boshlanib,

miyonxat qismiga bog'lanadi. Ariyada tasodifiy alteratsiya belgilarning qo'llanilishi Layli obrazidagi bezovtalik, psixologik holatni noturg'unligini bildiradi.

55-taktga kelib "avj" qismi musiqiy partiturada aks etadi. Kvinta intervali tomon sakrash va uning to'ldirishlari orqali, S tonalligi ustuvorligi seziladi. Orkestr kuy yo'liga garmonik-ritmik jo'lik vazifasini bajaribgina qolmay, ichki iztirobni ifodalashga ko'maklashadi.

Majnun obrazining "Hijron tunin jafosi" misralari bilan boshlanadigan ariyasi "Segoh" maqomining "Saraxbori Segoh" ashula turkumi intonatsiyalari ariyada seziladi. Kuy yo'lining intonatsion jihatidan o'xshashligi, qahramon tabiatiga monand ravishda tanlanganidan dalolat beradi. Ma'lum holat, obrazli dunyoni, vaziyatni musiqiy ohanglar orqali rosmansa, xalqona tasvir etishda maqom ohanglari xizmat qilgan.

Majnun ariyasining tayanch pardasi "re" bo'lib, kuy yo'liga qisqartirilgan, ixchamlangan ko'rinishda beriladi. Dastlab 6 taktli orkestr muqaddimasidan so'ng, ovoz partiyasining daromad qismiga o'tiladi. Ushbu ariya ham kompozitor Sarvar Yusupov tomonidan qayta garmonik jo'rlik va partiturasini ishlangan bo'lib, hozirgi kunda shu variantda sahnada ijro etilib kelinmoqda. 22-taktga kelib, miyonxat "lya" tovushi kvinta intervalida namoyon bo'ladi. Bu yerda maqom ashula turkumlariga xos shakl-shamoyil aniq bayoni seziladi. 47-taktdan 51-taktga qadar orkestrda musiqiy mavzu yangraydi.

85-taktga kelib, ariyada 6/8 o'lchovi namoyon bo'ladi. Musiqiy matoda lya-eoliy ladiga qisqa og'ishma kuzatiladi. Shundan so'ng, asosiy kuy yo'li elementlari asosida xotima qismi kiritiladi.

Laylining navbatdagi ariyasi 2/4 o'lchovida, lya-miksolidiy ladida "Chorgoh-I" ashulasi asosida yozilgan. Buni ariyaning birinchi sadosidan ham bilish mumkin. Bu yerda maqom ashulasidan ayrim o'zgartirishlar kiritilgan holda foydalanilgan. Ariyaning mohiyati Laylining ichki olamini, his-tuyg'ularini gavdalantirish bo'lib, bastakor To'xtasin Jalilov va Shorahim Shoumarovlar tomonidan yuqorida ta'kidlaganimizdek Cholgoh-I ohang asosi kiritilgan bo'lsa ajab emas. Yangi variantdagi "Layli va Majnun" musiqali dramasida kompozitor Sarvar Yusupov ushbu ariyani qayta garmonik jo'rlikni qayta yozib, orkestrga moslashtirdi.



Dugoh maqomi tarkibiga kiruvchi Chorgoh -I ta'sirchan, ulug'vorliligi va ohangdorligi bilan ajralib turadi. Uning lad asoslari, kuy tuzilishi, harakati, doira usullari, she'r vazni va o'lchovi, kuy mazmuniga mos bo'lganligi sababli tinglovchilarda yuksak badiiy-estetik zavq uyg'otadi. Chorgoh -I Dugoh Saraxbori kuy shakli sifatida yuzaga kelgan. Lekin kuy rivoji qisqartirilgan va unga ma'lum o'zgarishlar kiritilgan. Daromaddan avjga (Muhayyari Chorgoh namudi saqlangan) kuy yo'nalishi va harakati Saraxborga o'xshash (doyra usuli, sur'ati, she'r vazni saqlangan).

O'zbek an'anaviy musiqasida Iroq maqomi yo'llari asosida juda ko'p kuy va ashulalar yaratilgan, jumladan, "Cho'li Iroq", "Surnay Irog'i", "Toshkent Iroqi", "Qo'qon Irog'i", "Buxoro Irog'i" va boshqalar.

Musiqali dramada mahzun, g'amgin xarakterdagi "Cho'li Iroq" kuyi Majnunni Layli ishqida sahrodagi darbadarligini aks ettiradi. Nay cholg'usidagi ushbu kuy sahroda manzarasini, Majnunni darbadarligini ifodali aks ettirgan.



Qaysning "Qorong'u kechalarni so'nggida bordur" misralari bilan ijro etiladigan ariyasi Iroq maqom yo'llari asosida yaratilgan "Toshkent Iroqi" ashulasi asosi yotadi. "Toshkent Iroqi"ning lad-parda asoslari, o'lchovi saqlangan. Musiqali dramada mazkur ashula qisqartirilgan variantda namoyon etiladi. Bu ashulani ariyaning ilk sadosidan ham bilib olish mumkin.

Barchamizga ma'lumki, "Layli va Majnun" dostoni mumtoz Sharq she'riyatining eng mashhur asarlaridan biri bo'lib, u O'rta Sharq va Markaziy Osiyo musiqa va madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatgan. Ushbu asar bir necha asrlar davomida turli xil san'at shakllarida, jumladan, musiqa va drama janrlarida qayta-qayta ishlangan. "Layli va Majnun" asarini sahnalashtirishda maqom an'analari alohida ahamiyatga ega.

Maqom (yoki maqom san'ati) O'rta Sharq va Markaziy Osiyoning musiqiy an'analarda muhim o'rin tutadi. Bu, o'z navbatida, turli musiqa tizimlari, melodik va

ritmik shakllar to'plamidir. Maqom san'ati jahon musiqasida o'zining boyligi, xilma-xilligi va chuqurligi bilan ajralib turadi. Har bir maqom o'ziga xos tuzilishga ega bo'lib, uni o'zgaruvchan muhitga qarab turli vaziyatlarda ijro etish mumkin.

“Layli va Majnun” musiqali dramasida maqom an'analari keladigan bo'lsak, musiqiy dramatik asarning o'zida mavjud bo'lgan hissiy ziddiyatlar va dramani musiqaviy ifodalashda maqomning o'ziga xos ahamiyati mavjud. Bu asar turli musiqiy shakllar, shakllantiruvchi maqom tizimlari yordamida sahnalashtiriladi. O'zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlarida, shuningdek, O'rta Sharq musiqasida ham maqom an'analari juda muhim hisoblanadi, va ular bu kabi dramalarda:

1. His-tuyg'ularni (emotsional) holatlarni ifodalash: Maqomlar juda boy emotsional rang-baranglikka ega. “Layli va Majnun” asarida Majnunning sevgi iztirobi va Laylining ajralishi orqali yuzaga kelgan dardini maqomlar orqali chuqur his qilish mumkin. Musiqada kuy, tonallik, ritm, va garmoniya yordamida xarakterlarning ichki dunyosi aks ettiriladi. Masalan, Majnunning qayg'usi, Laylining sevgi uchun kurashishi muayyan maqomlarda aks etadi.

2. Maqomning dramatik tasviri: Maqomlar nafaqat biror bir hissiy holatni ifodalash, balki musiqiy drama uchun ham mustahkam asos yaratadi. Har bir maqom o'zining alohida xarakteriga ega, bu esa musiqali drama davomida har bir sahnani alohida dinamikada keltirib chiqaradi. Masalan, Majnunning “yolg'izlik” holati dastlabki maqomlar orqali tasvirlanishi mumkin, so'ngra, Layli bilan uchrashish sahnasida navbatdagi maqomga o'tishi mumkin.

3. Diniy va ruhiy kontekst sifatida: “Layli va Majnun” asarining mazmunida ma'naviyat, sevgi va tasavvufiy elementlar mavjud. Tasavvuf musiqasining maqomlari (masalan, nay cholg'usining nolishi) asarda yuqori ma'naviy va ruhiy kayfiyatni yaratishda muhim o'rin tutadi. Majnunning ichki iztiroblari va ruhiy izlanishlarini tasavvuf musiqasining maqomlari orqali ifodalash, uning ma'naviy dunyosini ochib beradi.

4. Sahna estetikasida maqomning ahamiyati: Musiqali dramaning sahnalashtirilishida maqomning amaliyoti sahna harakatlari, ariya, duet, qo'shiqlar hamda raqslar bilan uyg'unlashadi. Bu orqali, musiqaning tabiiy va estetik o'zgarishi, aktyorlarning harakatlari va vokal ijrosining uyg'unligi bilan birgalikda, asarning dinamikasi kuchayadi.

“Layli va Majnun” musiqali dramasida maqom an'analari juda katta ahamiyatga ega. Musiqaning maqom tizimi asarning ichki hissiyotlarini, ruhiy holatlarni va dramani yoritishda muhim vosita sifatida foydalaniladi. Maqomlarning kuy va ritmik tasvirlari orqali dramadagi xarakterlarning emotsional holatlari va ma'naviy izlanishlari jonlanadi. Bu musiqali drama nafaqat san'at asari sifatida, balki maqom an'analari orqali, o'zining madaniy boyligini ham namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G'ofurbekov T. O'zbekiston musiqa madaniyati (o'quv qo'llanma). "Musiq", 2019.
Ҳамидова М. Санъат асарлари таҳлили. Ўқув қўлланма. Тошкент, 2009.
2. Ибрагимов О. Фергано-Ташкентские макомы. "Media-land", Ташкент, 2006.
3. Жабборов А. Мусикий драма ва комедия жанрлари Ўзбекистон композиторларининг ижодиётида. Тошкент, 2000.
4. Жабборов А. Ўзбекистон бастакорлари ва муסיқашунослари. "Янги аср авлоди", Тошкент, 2004.